

**BOSHLANG’ICH TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI
O’QUVCHILARGA SINGDIRISH**

Eshmirzayeva Muhayo Zayriddin qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Ta’lim muassasalari boshqaruvi 2- kurs magistranti

Anotatsiya: ushbu maqolada boshlang’ich ta’limda insonparvarlik g’oyalarini o’quvchilarga singdirishning mazmun – mohiyati xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: insonparvarlik, qadr, erkinlik, milliy o’zlikni anglash, vatanparvarlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность привития гуманистических идей учащимся начальных классов.

Ключевые слова: гуманность, достоинство, свобода, национальная идентичность, патриотизм.

Annotation: This article discusses the importance of inculcating humanistic ideas in students in primary education.

Keywords: humanity, dignity, freedom, national identity, patriotism.

Dunyoda odamgarchilikni bilmaydigan

arbobdan madad kutib, umringni zoye o’tkazma.

Abdulqodir Bedil.

Insonparvarlik — insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huqukliligi to’g’risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart - sharoitlar yaratib berish haqida g’amxo’rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko’ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt - saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlarini, mamlakat kishilari haqida g’amxo’rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir. Insonparvarlik g’oyalari uzoq tarixga ega. Ular baxt-saodat va adolatga erishish orzulari tarzida

qadimdan xalq og‘zaki ijodida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta‘limotlarda o‘z aksini topib kelmoqda.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘qituvchilarining komil insonni voyaga yetkazish, ma‘naviy - axloqiy tarbiya va ma‘rifiy ishlar sohasida olib borayotgan ishlari diqqatga sazovordir. O‘qituvchi boshlang‘ich ta‘lim bosqichida ma‘naviy muhitni yaratish bilan birga kasbdoshlari va o‘quvchilar jamoasidagi ahillikni mustahkamlaydi va rivojlantiradi. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida I-IV sinflarda o‘qitiladigan «Ona tili va o‘qish savodxonligi», «Odobnoma», «Tabiat», «Musiqqa madaniyati», «Tasviriy san‘at», «Mehnat», «Jismoniy tarbiya», «Tarbiya» kabi fanlar asosida kichik yoshidagi davrda insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirishning poydevori qo‘yiladi. Chunki, ushbu fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar ongiga insonparvarlik g‘oyalarini singdirish, inson va jamiyat hamda uning taraqqiyoti haqida tushunchalar, bilimlar haqida muayyan tasavvurni xosil qilish, ma‘naviy-ahloqiy xatti-harakatlarni o‘zlashtirish, shaxsning ijtimoiy yo‘nalishi haqidagi ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. Ya‘ni, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda insonparvarlik g‘oyasini shakllantirish I sinfdan IV sinfgacha bo‘lgan davr mobaynida muhim o‘zgarishlarga uchraydi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib insonparvarlik haqidagi bilimlar tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi. Ya‘ni, boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifasi har tomonlama rivojlangan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat ekanligi tufayli har bir o‘qituvchi dars jarayonida bolalarda «mamlakatimiz mustaqilligi, ramzlari va bayramlar haqida so‘zlab berish, yozma va og‘zaki nutq malakalariga ega bo‘lish, fikr bayon qilish uchun zarur bo‘lgan ayrim grammatik vositalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish, xalq og‘zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o‘qib tushuna olish» kabi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi uchun o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Boshlang‘ich ta‘lim mazmuni va tarbiya asosida o‘quvchilarda insonparvarlik g‘oyasini shakllantirish ishi ob‘ektiv shart-sharoitlar hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning dialektik birligi negizida tashkil etiladi. Filologiya, inson va jamiyat ta‘lim sohalari asosida

kichik yoshdagi o'quvchilarda insonparvarlik g'oyasini yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish yo'lida beriladigan bilimlar ularda g'oyalar xususiyati tushunchalarni hosil qiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda insonparvarlik g'oyasini shakllantirish asosida ularda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usini kamol toptirishda o'qish darslari muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, o'qish darslari o'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmay, balki, ularning umummadaniy tafakkurini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan insonparvarlik g'oyasini, insonlarga va atrof - muhitga bo'lgan munosabatini rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichining 3-, 4-sinf o'quvchilari uchun chop etilgan “O'qish kitobi”ning dastlabki mashg'ulotlari O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi bilan boshlanadi.

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt najot
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh mehribon.
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Madhiyada O'zbekiston xalq qahramoni, shoir Abdulla Oripov davlatimizning xalqimizning insonparvarligini, uning doimo do'stlarga yo'ldosh, mehribon ekanligini g'urur va iftixor bilan yozagan. O'quvchilar madhiyani kuylash jarayonida miliy g'ururni his eta boradi.

Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilariga davlatimiz madhiyasining mohiyati, mazmunini tushuntirish bilan birga uning satrlarida ifodalangan insonparvarlik g'oyalariga alohida e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, kichik yoshdagi o'quvchilarda insonparvarlik g'oyasini shakllantirish jarayonida o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim.

1. Bolalarda insonparvarlik g'oyalari, xatti-harakatlarini tarbiyalash;
2. O'quvchilarda odamiylik, do'stlik, to'g'rilik, adolatparvarlik munosabatlarini tarbiyalash;
3. O'quvchi shaxsida ma'naviy - ahloqiy fazilatlarni shakllantirish;

4. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari bo'lgan - Vatan ravnaqi, komil inson kabilarni o'quvchilar qalbiga va ongiga singdirish.

O'qituvchining pedagogik mahoratida darsning o'рни muhim. Dars shunday markazki, o'qituvchining har bir tafakkuri va harakatlari shu markaz atrofida aylanib, yana unga qaytib keladi. Har bir dars o'qitish jarayoniga o'z hissasini qo'shadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo'lish, milliy urf-odatlar, odob ilmiga doir tajribalarni darslarda qo'llash, bayon, yozish kabi ishlarni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda insonparvarlik g'oyasining shakllantirishga alohida ahamiyat berish bilan birga uning o'zi insonparvar sahiy inson sifatida maktabdagina emas, balki mahalla aholisi o'rtasida ham hurmat qozonadi. U tez - tez o'quvchilarining uylarida bo'lib, ota - onalari bilan suhbatda bo'ladi. Respublikamizda milliy istiqlol mafkurasini haqidagi g'oyalarni fuqarolar ongiga yetkazadi. Bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdard bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim-tarbiya jarayonida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy - ahloqiy negizlarini, milliy istiqlol mafkurasini o'quvchilar ongiga yetkazishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarda insonparvarlik g'oyasini shakllantirish dastlab o'qish mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Insonparvarlik g'oyasini shakllantirishning vazifasi va mazmuni boshlang'ich ta'lim bosqichida milliy ahloqiy tarbiya berishning asosiy tamoyillari va pedagogik shart - sharoitlariga rioya qilish asosida bajariladi. Shuni aytish kerakki, birinchi sinfda o'quvchilar dastlab ilm, kitob haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Umuman olganda, O'zbekistonda mustaqillikka erishish sharofati bilan intellektual meros asosida yoshlarni tarbiyalash masalasiga e'tibor kuchaytirildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini uning aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, shuningdek, bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan intellektual salohiyatliligi kabi ko'p qirrali tarkibiy qismlarini yaxlit jarayon sifatida amalga oshirishni taqozo

etadi. Ta`lim-tarbiya jarayonida intellektual merosning tarkibiy qismlari o`quvchi ongiga ta`lim-tarbiya va butun faoliyati davomida o`zaro birlik va aloqadorlikda singdiriladi. Ayni vaqtda shuni ham nazarda tutish kerakki, intellektual meros tarkibiy qismlarining o`quvchi ongi va faoliyatiga ta`sir darajasi, ularning mazmuni, mohiyati va xarakterli xususiyatlariga bog`liqdir. Shuningdek, ayrim shaxsning intellektual salohiyati darajasi, avvalo, uning aqliy kamoloti bilan belgilanadi. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, aqliy salohiyat ko`p jihatdan o`quvchining faollik darajasini namoyon qilish bilan belgilanadi. Shuning uchun boshlang`ich sinf o`quvchilarida faollikni oshirish, bu borada milliy-ma`naviy merosdan keng ko`lamda foydalanish va uning pedagogik imkoniyatlarini ta`lim tarbiya jarayoniga to`g`ri qo`llash murabbiylardan doimo izlanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne`matova A.Insonparvarlik. <https://malumot.ru/ne%ca%bcmatova/>
2. S.Komilova “Yoshlar tarbiyasida ilmiy merosimizning o`rni” T., “Mehnat” 2000 yil.
3. O.Tursunov, S.Jamalov “Yoshlar tarbiyasida qadriyatlarimizning roli”. T., “Sharq”. 2000 yil.
4. A.Sirojiddinov, M.Lafasov “Yoshlarni intellektual salohiyatini oshirish” T., “O`zbekiston” 2008 yil
5. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini faollashtirishda o`zbek milliy-ma`naviy merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. <https://multiurok.ru/index.php/files/boshlangich-sinf-oquvchilarini-faollashtirishda-oz.html>.